

FORMATIV BAHOLASH JARAYONIDA 7-SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI BAHOLASHNING STRATEGIYALARI VA MEZONLARI

G‘aybulloyeva Feruza Bobir qizi

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Ona tili va adabiyoti ta‘limi fakulteti 2-
kurs magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 7-sinf o‘quvchilarini og‘zaki nutqini baholashda qo‘llaniladigan usul va vositalar hamda baholar mezonlari borasida fikr yuritiladi. Monologik va dialogik nutqqa xos baholash mezonlari va tartiblari alohida izohlanadi

Kalit so‘zlar : baholash strategiyalari, texnologiya, nazorat varaqasi, baholash rubrikasi, monologik va dialogik nutq.

Kirish

Og‘zaki nutqni baholash murakkab jarayon bo‘lib, uni tashkil qilish va muayyan tartib asosida shakllantirishda qator strategiyalar va maxsus mezon baholash jarayonini birmuncha osonlashtiradi. Umuman olganda, 7-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini formativ baholashda beriladigan topshiriqlar mazmuni, metodikasi, tartibi hamda baholash mezoni muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan kommunikativ yondashuvga asoslangan ona tili ta‘limida og‘zaki nutq mexanizmlariga alohida to‘xtagan holda so‘zlash ko‘nikmasini baholovchi tizimli uslub va texnologiyalarni yaratish va ular asosida mashq va topshiriqlar metodikasini yuzaga keltirish o‘quvchilarning mantiqan izchil, tugal, mazmundor, ta‘sirchan va ifodali nutq hosil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqotimiz davomida, til ta‘limiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishimiz jarayonida og‘zaki nutqning ikki xil ko‘rinishi, ya‘ni monologik hamda dialogik nutq mavjudligi, ular nafaqat og‘zaki, balki yozma nutqqa ham amal qilishi mumkinligiga amin bo‘ldik. Ilmiy-tadqiqot vakillari bo‘lmish A.R.Luriya, S.L.Rubinshteyn, V.P.Gluxovning fikricha, dialogik nutq nutqning birlamchi ko‘rinishi bo‘lib, ikki va undan ortiq suhbatdosh o‘rtasida fikr almashish jarayoni hisoblanadi. Dialogik nutq tuzish mashg‘ulotida asosan, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi faol ishtirok etadi, ya‘ni tinglovchi va replika hosil qilinadi. Birinchi replika suhbatga tortish, chorlash yoki murojaat qilish ko‘rinishida bo‘lsa, ikkinchi replika berilgan savolga javob qaytarish xarakteriga ega.¹ Demak, dialogik nutqda ham tinglovchi ham so‘zlovchi faol qatnashadi. Dialogik nutqni shakllantirish asosida monologik nutq hosil qilish mumkin. Monolog nutq esa yakka shaxsning individual nuqti bo‘lib, uning kommunikativ maqsadlaridan biri fikrni fakt va dalillar hamda hayotiy tajribalar bilan tinglovchilarga yetkazishdan iborat. Ta‘kidlash joizki, monologik nutq so‘zlash uchun muayyan mavzuda oldindan tayyorgarlik ko‘riladi yoki tayyorlanish uchun ayni o‘sha vaqtda ma‘lum muddat vaqt beriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad to‘satdan berish orqali so‘zlovchini gangitib qo‘ymaslik va tafakkur zo‘riqishini yuzaga keltirmaslikdir. Mazkur olimlar A.R.Luriya, S.L.Rubinshteyn, A.A.Leontev monolog nutqining asosiy xususiyatlari haqida esa quyidagilarni keltirishadi:² -nutq bir tomonlama va uzluksiz bo‘lishi; - axborot mantiqiy



ketma-ketlikda tadqim etilishi; - axborot tinglovchiga yo'naltirilganligi; - mazmunning shartliliigi; - axborot berish motivi. Dialogik va monologik nutq to'g'risida alohida to'xtalib o'tganimizning sababi shundaki, har ikkala nutq ko'rinishining baholash uslublar, texnologiyalari hamda mezon alohida shakllantiriladi. Xususan, monologik va dialogik nutqni formativ baholovchi o'ziga xos metodlar va strategiyalar mavjud. Keling, ular bilan alohida tanishib chiqsak, dastlab dialogik nutqni tashkil qiluvchi usullarga e'tiborimizni qaratamiz. 1. "Intervyu" usuli. Bir necha tadqiqotlarda og'zaki nutqni tekshirish maqsadida bu usuldan ko'p bora foydalanilgan. Biz esa bu metodga baholash 1 D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. Barkamol fayz media nahriyoti. Toshkent – 2018. 425b. 2 D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent.: 2018 8-bet. maqsadidan kelib chiqqan holda biroz o'zgartirish kiritdik. Bunda asosan, ikkita o'quvchi qatnashishi mumkin. Shuningdek, ikki o'quvchidan biri muxbir, ikkinchisi esa intervyu beruvchi shaxs. Bu usulda intervyu mavzulari oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar chiqishidan oldin mavzular e'lon qilinadi. Intervyu beruvchi o'quvchi tayyorlab qo'yilgan mavzudan birini tanlaydi, muxbir esa mavjud savoldan tashqari yana bitta qo'shimcha savol berishi kerak. Agar savollar varaqasida 5ta savol yozilgan bo'lsa, muxbir bir savolga bittadan savol qo'shib, savollar sonini ko'paytirish kerak. Bunda qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat: – adabiy til me'yorlariga amal qilish; – berilgan savolga mos tarzda izchil va ravon fikr bildirish; – mantiqan tugal va tushunarli gapirish; – taassurotlar va hayotiy dallillar bilan nutq so'zlash. Bu usulni amalga oshirish orqali o'quvchilar nutqidagi kamchiliklar o'rganiladi hamda keyingi darslar uchun shu kamchilikni bartaraf etuvchi topshiriqlar tuzish rejasini amalga oshirish mumkin. 2. "Yo'lda adashib qolsam" usuli. Bu usulning mazmun-mohiyati shundan iboratki, bu o'yin-usul bo'lib, bunda ham o'quvchidagi nutq so'zlash ko'nikmasini tekshirish va baholash maqsad qilib olinadi. Jarayon quyidagicha amalga oshadi: ikki nafar o'quvchi ishtirok etadi, ulardan biri shu yerlik tub aholi, ya'ni yashab turgan joyi haqida to'liq ma'lumotga ega shaxs. Ikkinchisi esa, boshqa viloyat, shahar yoki tumandan. Ikkinchisi, ya'ni "mehmon" yo'lda adashib qolgan, "mezbon" esa u yo'lni topib olishi uchun aniq ma'lumot berishi kerak, mehmon ham qayerdan qayergacha yurgan yo'nalishini to'g'ri tushuntira olishi lozim. Shartni amalga oshirish uchun birinchi navbatda nutqning mantiqan izchil va aniqligiga e'tibor qaratish lozim, bundan tashqari, adabiy til qonun-qoidalariga rioya qilish, nutqiy parazitlar (argo va jargonlar) dan xoli nutq so'zlash, leksik va grammatik birliklardan to'g'ri foydalanish talabi qo'yiladi. Bu usul ham bizga o'quvchilar nutq tuzayotganda qay darajada aniq, tushunarli tuza olishi haqida muayyan xulasaga kelishimiz uchun zamin yaratadi. Yuqoridagi usullar yordamida o'quvchilarni dialogik nutqidagi kamchiliklar va yo'l qo'yiladigan xatoliklar aniqlanib, og'zaki nutqi formativ tarzda baholanadi. Endi esa monologik nutqda qo'llash mumkin bo'lgan metod va usullarni ko'rib chiqamiz. Bular: 1. "Tasvirni top" usuli. Bu usulda ham tajriba-sinov jarayonida juda faol foydalanildi. Buni amalga oshirish uchun adabiyot bilan bog'lab, integratsiya qilish orqali amalga oshirildi. Unga ko'ra, 7-sinf adabiyot darsligidagi asarlarni ("Chol va dengiz", "Ota", "Mehrobdan chayon", "Yulduzli tunlar", "Qiyomat qarz", "Baliq ovi", "Xameleon") tasvirlovchi barcha rasmlar chiqartirib olindi hamda doskaga chiqqan bir nafar o'quvchidan rasm tanlash so'raladi. Tanlangan rasm faqatgina doskaga chiqqan o'quvchiga ko'rish uchun ruxsat beriladi. U ko'rgan tasvirini ayni qaysi asar ekanligini aytmasdan, so'z orqali tasvirlab berishi kerak. Asar qahramonlari ismlarini aytish ham mumkin emas, faqat joy, voqea-hodisa so'z orqali ifodalanadi. Sinfidagi boshqa o'quvchilar uni qaysi asar ekanligini topishi kerak bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning nafaqat tilga oid, balki boshqa fanlardagi bilimlarini ham namoyon qilishida qo'l keladi. Shu bilan birga, vizual tasvirni ta'riflash jarayonida uning nutqida tasviriy vositalardan foydalanish uchun ehtiyoj tug'iladi, leksik birliklarlarni qo'llash va mantiqiy, izchil nutq tuzish jarayoni kuzatilib, unga baho beriladi. 3. "Qayta hikoyalayman" usuli. Ushbu usulda o'quvchilar yoshidan kelib chiqib muayyan matn tanlanadi. Matn publitsistik uslubga xos, tushunarli bo'lishi kerak. Ushbu matn ikki marta o'qib beriladi. Shundan so'ng o'qib eshittirilgan matnni qayta hikoyalab berish



sharti qo'yiladi. Xotira mashqi o'quvchilarni faqat xotirasini tekshiribgina qolmay, ularning so'zlashish, tinglab tushunish ko'nikmalarini ham baholash uchun yordam beradi. Qayta hikoyalash jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi oshadi, voqealarni ketma-ket, mantiqan izchil, ta'sirchan ifodalay olish qobiliyatini oshiradi. Yuqorida dialogik hamda monologik nutq uchun qo'llangan metod va usullarni ko'rib chiqdik. Endi ular asosida tashkil etilgan mezon bilan tanishib chiqsak. Bunda monolog ko'rinishdagi nutq uchun baholash rubrikasi, dialog ko'rinishdagi nutq uchun esa nazorat varaqasi(check-list) tashkil etildi. Ularga ham alohida to'xtalib, urg'u berib o'tamiz. Nazorat varaqasi(check list) Ushbu baholash texnologiyasi o'quv jarayoni davomida biror nutqiy mavzu yoki bob tugaganda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar mavjud nutqiy mavzu davomida o'zlashtirishi kerak bo'lgan nutq so'zlashga oid talablar ro'yxati tuzilib, shu asosda topshiriqlar tayyorlanadi. Shungdek, dialogik nutq vaziyati tashkil qilinganda, har ikki va undan ortiq o'quvchining nutqiy sifatleri tekshirilib boriladi. Bunda quyidagi jadvaldan foydalandik, o'quvchilarning ismlari chap tomondagi birinchi ustunda, o'quvchilar amal qilishi kerak bo'lgan nutqiy sifatlar esa tepa ustunda ketma-ket berilib, har birini qo'llashiga qarab belgilanib boriladi. Ushbu nazorat varaqasidan foydalanish orqali natijalar tahlil qilinib, har bir o'quvchiga zaruriy fikr va mulohazalar hamda natijalarni yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. O'quvchilar F.I.Sh. Adabiy til me'yorlari ga amal qiladi Fikrlari aniq va ravon Hayotiy dalillar bilan gapiradi Gaplarni grammatik to'g'ri shakllantira di Nutqi tugal va mantiqan izchil (Qo'shim cha) Nutq so'zlagan da tana tilidan foydalana di. A o'quvchi B o'quvchi C o'quvchi D o'quvchi Endi keyingi baholash texnologiyasi monologik nutqni teshirishga qaratilgan bo'lib, u baholash rubrikasi deb ataladi. Ushbu texnologiyadan o'quv mashg'uloti davomida individual topshiriqlarni bajarish davomida foydalaniladi. U orqali belgilangan topshiriqni qay darajada bajarilishiga qarab baho beriladi. Uni jadval ko'rinishida tasvirlab, shu asosda og'zaki nutqni baholovchi mezon yaratdik. Og'zaki nutq talablari Daraja indikatorligi Yuqori O'rta Quyi Nutqning tugalligi Har ikki vaziyat to'liq yoritib berilgan, mavzudan chetlashish umuman kuzatilmaydi. Vaziyatlardan asosan bittasi ochib berilgan, ikkinchisi qisman yoritilgan yoki mavzudan ayrim o'rinlarda chetlashish kuzatiladi. Mavzuni tushunmagan, unga umuman aloqador bo'lmagan fikrlar bayon etilgan. Nutqning asosiligi Fikr bayonida besh va undan ortiq o'rinda mavzuga mos faktlar va hayotiy misollardan foydalanilganda Fikr bayonida 1-2 ortiq o'rinda mavzuga mos faktlar va hayotiy misollardan foydalanilganda Fikr bayonida mavzuga mos faktlar va hayotiy misollardan foydalanilmaganda Nutqning jo'yaliligi Fikr bayonida qo'shimcha va so'zlarni mazmuniygrammatik jihatdan xato qo'llash uchramaganda Fikr bayonida 3-4 o'rinda qo'shimcha va so'zlarni mazmuniygrammatik jihatdan xato qo'llanganda Fikr bayonida 5 va undan ortiq o'rinda qo'shimcha va so'zlarni mazmuniygrammatik jihatdan xato qo'llanganda Nutqning ifodaviyligi Fikr bayonida sinonimik birliklardan unumli foydalanilib, birliklar Fikr bayonida 3-4 o'rinda tavnologik xatolik (birliklarni ortiqcha takrortakror qo'llash) kuzatilganda Fikr bayonida 5 va undan ortiq o'rinda tavnologik xatolik (birliklarni ortiqcha takrortakror qo'llash) kuzatilganda tavnologiya kuzatilmaganda Nutqning ta'sirchanligi Fikr bayonida leksik xilma-xillik kuzatilgan, uch va undan o'rinda badiiy tasvir vositalaridan maqsadli foydalanganda Fikr bayonida leksik xilma-xillik kuzatilgan, ikki o'rinda badiiy tasvir vositalaridan maqsadli foydalanganda Fikr bayonida leksik xilma-xillik kuzatilmaganda Nutqning mantiqiyiligi Fikr bayonida mantiqiylikka to'liq amal qilinganda va fikriy takrorlar kuzatilmaganda Fikr bayonida 3-4 o'rinda mantiqiylik buzilganda yoki 3-4 o'rinda fikriy takrorlar kuzatilganda Fikr bayonida 5 va undan ortiq o'rinda mantiqiylik buzilganda yoki 5 va undan ortiq o'rinda fikriy takrorlar kuzatilganda Ushbu rubrika 7-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini baholash uchun ishlab chiqilgan maxsus mezon, ularning yosh xususiyatlari, qobiliyat va nutq imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzildi. Bu orqali o'quvchilarni kun davomida formativ tarzda baholab turish mumkin. Fikrimizni yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosalaydigan bo'lsak, baholash tartibi tizimli amalga oshirilishi lozim.



Formativ baholashni amalga oshirishdan avval o‘quvchilar savol va topshiriqlar bilan tanishtirilishi hamda ular asosida namuna ko‘rsatilishi zarur bo‘ladi. Shu orqaligina og‘zaki nutqni baholash jarayoni ancha oson kechadi hamda sifat ko‘rsatgichi ham kutilgandek natija beradi. Baholash mezonini esa o‘quvchilarni sof va shaffof baholanishini ta‘minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahim Sh. Ona tili ta‘limida o‘qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent. “Nodirabegim” nashriyoti – 2021.. 126 b.
2. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. Barkamol fayz media nashriyoti. Toshkent – 2018. 425b.
3. Natalie Regier . Formative assessment strategies. Qo‘llanma. Regier educational resources. 28 bet.
4. Komil Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 256b.
5. <https://www.westminster.edu/about/accreditation-assessment/definition.cf>

